

JADIDCHILIK HARAKATI VA SOVET MAFKURAVIY SIYOSATI: TURKISTONDA MADANIY VA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALAR

Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa,

ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jadidchilik harakatining shakllanishi, uning asosiy g'oyalari hamda sovet hokimiyatining madaniy siyosati bilan bog'liq ziddiyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jadidlarning ma'rifiy, siyosiy va madaniy faoliyatini hamda bolshevik mafkurasining madaniyat sohasiga ta'sirini qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Turkiston, ma'rifat, madaniyat siyosati, sovet mafkurasi, milliy uyg'onish, matbuot.

Kirish

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitda rivojlandi. Mustamlakachilik tizimi, iqtisodiy qoloqlik, savodsizlik va madaniy tanazzul jamiyat taraqqiyotini sezilarli darajada cheklab qo'ydi. Shu davrda xalqning ilg'or ziyolilari jamiyatni isloh qilish zaruratini chuqur anglab yetdilar.

Ana shu tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllandi. Jadidlar jamiyatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etish hamda milliy taraqqiyotga erishish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo ta'lim va ma'rifat bilan bog'liq edi.

Jadidlar nafaqat ta'lim tizimini isloh qilish, balki milliy matbuotni rivojlantirish, teatr san'atini shakllantirish va ayollar ma'rifatini oshirishni ham muhim vazifa deb bildilar. Bu harakat milliy uyg'onish jarayonining asosiy intellektual poydevoriga aylandi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Jadidchilik harakatining g'oyaviy asoslari, ijtimoiy mazmuni hamda sovet davridagi madaniyat siyosati o'zaro solishtirildi.

Tadqiqotda quyidagi manbalar tahlil qilindi:

jadid ma'rifatchilarining asarlari va publitsistik chiqishlari;

tarixiy gazeta va jurnallar;

RKP(b) qurultoy qarorlari;

sovet davri madaniy siyosatiga oid hujjatlar.

Shuningdek, induktiv va deduktiv usullar yordamida tarixiy voqealar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar

Jadidchilik harakati Turkistonda ijtimoiy uyg'onish va modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi bo'lib xizmat qildi. Harakat vakillari jamiyatni isloh qilishni ta'lim tizimini yangilashdan boshlash zarur deb bildilar.

Jadidlar tomonidan yangi usul maktablari tashkil etilib, o'quv dasturlariga dunyoviy fanlar kiritildi. Bu esa an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan muhim yangilik bo'ldi.

Harakat yetakchilari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat ma'rifatparvar, balki ijtimoiy-siyosiy fikr shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar.

Jadid matbuoti xalq ongini uyg'otishda muhim rol o'ynadi. "Taraqqiy", "Xurshid", "Samarqand", "Sadoi Farg'ona" kabi nashrlar orqali ilm-fan, milliy o'zlik va taraqqiyot g'oyalari keng targ'ib qilindi. Bu gazeta va jurnallar jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir ko'rsatgan muhim intellektual platforma bo'lib xizmat qildi.

Teatr san'ati ham jadidlar uchun muhim targ'ibot vositasiga aylandi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi jamiyatdagi jaholat, savodsizlik va ijtimoiy muammolarni keskin tanqid qilgan ilk dramatik asarlardan biri bo'ldi.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, madaniyat va san'at sohalari davlat mafkuraviy nazorati ostiga olindi. Bolsheviklar adabiyot va san'atni proletar mafkurasini targ'ib etuvchi vosita sifatida ko'rdilar.

RKP(b) qurultoylarida yoshlar uchun maxsus adabiyot yaratish masalasi muhim vazifa sifatida belgilandi. Bu adabiyot "yoshlarni kommunistik ruhda tarbiyalash"¹ga xizmat qilishi kerak edi. Natijada adabiyot va san'atning mustaqil rivojlanish imkoniyatlari cheklana boshladi.

1925-yilgi partiya qarorida "sinfy jamiyatda neytral san'at bo'lishi mumkin emas"² degan tamoyil mustahkamlandi. Bu esa san'atning to'liq mafkuralashtirilishiga olib keldi. Sovet davrida teatr, kino, adabiyot va tasviriy san'at partiya siyosatini targ'ib qilish vositasiga aylantirildi. Madaniyat muassasalari ustidan qattiq nazorat o'rnatildi.

Jadidlar umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniy taraqqiyotni yoqlagan bo'lsa, sovet mafkurasi sinfiy yondashuvni ustun qo'ydi. Bu ikki yondashuv o'rtasida keskin ziddiyat yuzaga keldi. Jadidlarning ko'plab g'oyalari "burjua ideologiyasi" sifatida tanqid qilindi. Natijada ularning faoliyati cheklanib, ko'plab vakillari siyosiy ta'qiblarga uchradi. Teatr va kino sohalari ham davlatning kuchli targ'ibot vositasiga aylantirildi. Ular orqali sovet mafkurasi keng ommaga singdirildi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg'onishning asosiy omillaridan biri bo'lgan. Ular jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilish g'oyasini ilgari surdilar. Jadidlar ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarni modernizatsiya qilishga intildilar. Ularning faoliyati milliy ong shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Biroq sovet davrida bu jarayon mafkuraviy nazorat ostiga olindi. Natijada madaniyatning tabiiy rivoji cheklanib, ijodiy erkinlik pasayib ketdi.

¹ КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. -М., 1972. Т.2. - С. 525-526.

² ФЕДЮКИН С. Борьба с буржуазной идеологией в условиях перехода к НЭПУ. - М., 1974. - С. 234

Shunga qaramay, jadidlarning merosi bugungi kunda ham ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg'onish va modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi bo'ldi. Ular ilgari surgan g'oyalar ta'lim, madaniyat va ijtimoiy fikr rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Sovet mafkuraviy siyosati esa madaniyatni siyosiy nazorat ostiga olib, uning erkin rivojlanishini chekladi. Shunga qaramay, jadidlar merosi bugungi kunda ham milliy taraqqiyot uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2000.–B.285
2. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.–B.51
3. Behbudiy, M. Asarlar to'plami. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1999. –B.251
4. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.–B.400
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq, 2003. –B.370
6. Ражабов Қахрамов Кенжаевич. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917—1935 йиллар). Ўзбекистон. нашриёти — 2000, Тошкент, 700129, Навоий, –B.30